

1. Ishmuhamedov, R.J., Yuldashev, M.A. Ta’lim va tarbiyada innovason pedagogik texnoogiyalar (ta’lim tizimi xodimlari, metodistlar, o‘qituvchilar, tarbiyachi va murabbiylaruchun o‘quv qo‘llanma) - T. 2017, Z68 b.

2. Muslimov, N.A va boshqalar.(2015) Innovatsion ta’lim texnologiyalari. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.

## **KREDIT TIZIMIDA TEXNIK SOHASIDAGI FANLARNI O‘QITISHDA TA’LIM VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASINI TA’MINLASH**

*Xaytbayev Aybek Fayzullayevich Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi TATU Telekommunikatsiya injiniringi kafedrasi katta o‘qituvchisi  
E-mail: xaytbaev/aybek.81@gmail.com*

*Ibrohimjonova Zahroxon Sultonbek qizi  
Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi TATU Telekommunikatsiya texnologiyalari fakulteti 3-kurs talabasi*

*E-mail: ibrohimjonovazahroxon8@gmail.com*

Ilmiy texnik taraqqiyotning rivoji faqat mutaxassislarning hamkorligi, ilmiy-tadqiqot ishlarining integratsiyasi natijasida amalga oshirilishi mumkin. Bu jarayonni ta’lim taraqqiyoti darajasi bilan bog‘liqligini e’tiborga oladigan bo‘lsak ta’lim sohasidagi xalqaro integratsiyaning ustuvorligi yaqqol muammoga aylanib qoladi. Bu esa modulli-kredit tizimida kredit texnologiyasini yaratilishini va qo‘llanilishining dolzarbligini belgilaydi. Chunki ta’lim sohasidagi xalqaro integratsiya birinchi navbatda ta’lim jarayonini kredit texnologiyasi asosida tashkil etishga tayanadi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida kadrlar tayyorlash bo‘yicha o‘qitishning kredit tizimi joriy etilgan. Bundan ko‘zlangan maqsad - o‘quv jarayoniga dunyo oliy o‘quv yurtlarida keng tarqalgan o‘qitishning kredit tizimini joriy qilish orqali universitetning jahondagi nufuzli oliy ta’lim muassasalari qatoriga kiritilishini ta’minlashdan iborat.

Kredit tizimining ahamiyati shundaki, akademik dasturlar mehnat bozori talablariga mos holda tuziladi. O‘quv rejadagi fanlarning 50 foizi tanlov fani bo‘lib, o‘quv jarayoniga axboriy tizimlar joriy etiladi. Shuningdek, talabalarni o‘qitish va mehnat bozoriga tayyorlashga individual yondashilib, ular mustaqil ta’lim olishga yo‘naltiriladi.

Ananaviy tizimda o‘qitishda ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini ta’minlashda bir qator kamchiliklar mavjud bo‘lib, ta’lim va buyurtmachilarni o‘zaro hamkorligi bo‘yicha ishlar samarali yo‘lga qo‘yilmagan, soxa korxonalarida amaliy mashg‘ulotlar samarali tashkil etilmagan, tayyorlanayotgan mutaxassislarni malakaviy darajasi mehnat bozorining zamонавиј талабларига yetarlicha javob bermaydi; ta’lim, fan va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasi ta’minlanmagan.

Kredit tizimini muhim jihatlaridan biri ta’lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini, hamkorlikni kengaytirishni rag‘batlantirish, hamkorlikdagi ilmiy loyihalarni qo‘llab-quvvatlash, bitiruvchilarni ish bilan ta’minlash hisoblanadi. Yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash jarayoniga kadrlar buyurtmachilarini faol jalb etish zarur.

Ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini ta’minlash maqsadida Telekommunikatsiya injiniringi kafedrasida soha korxonalari bilan hamkorlik shartnomalari tuzilgan. Shuningdek “O‘zbektelekom” AK filiali “Telekommunikatsiya transport tarmog‘i”da kafedra filiali ish yuritadi. Filialda laboratoriya mashg‘ulotlarini olib borish uchun o‘quv xonasi ajratilgan va kerakli texnika-texnologiyalar bilan jixozlangan. Shartnoma asosida korxonalarda talabalarning ishlab chiqarish va bitiruv oldi amaliyotlarini real tarmoqlarda o‘tkazish tashkillashtirilgan.

Bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha “Multimediali aloqa tarmoqlari” fanining ishchi o‘quv dasturi “Telekommunikatsiya transport tarmog‘i” korxonasi bilan kelishilgan holda fan, texnika va texnologiyalardagi yangiliklarni aks ettirgan holda hamkorlikda yangilangan. Shuningdek kredit tizimi uchun “Multimediali aloqa tarmoqlari” fanidan laboratoriya mashg‘ulotlarini soha korxonalarida olib

borish rejalashtirilmoqda. Hamkorlik asosida talabalar olayotgan nazariy bilimlarini soha korxonalarida amaliy tomondan mustahkamlaydilar. Kafedra bitiruvchilarini bitiruv malakaviy ishlari va magistrlik dissertatsiyalari mavzularini tanlash va ularga soha korxonalaridan yetakchi mutaxassislar rahbar etib tayinlangan.

Ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlashga, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishini shakllantiradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Maxmonov, U.A. (2021) Oliy ta'limda kredit-modul tizimining joriy etilishi va imkoniyatlari. Zamonaviy ta'lim ilmiy-amaliy ommabop jurnali, 1(98), 4-11.
2. Нажмудинов Х.Г., Нажмудинова М.Х. (2020). Применение информационных технологий в непрерывном образовании взрослых. Наука и образование сегодня журнали. Москва, 3 (50) ,7-10.

### **ПРОЕКТНО-ОРИЕНТИРОВАННОЕ ОБУЧЕНИЕ ИННОВАЦИО- ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ**

*Саида Сафибуллаевна Бекназарова  
доктор технических наук, профессор ТУИТ  
имени М.Хоразмий, Ташкент, Узбекистан  
e-mail: [saida.beknazarova@gmail.com](mailto:saida.beknazarova@gmail.com)*

В настоящее время многие образовательные учреждения стремятся сделать обучение более практическим и применимым к реальной жизни. Один из способов достижения этой цели - внедрение проектно-ориентированного обучения.

Проектно-ориентированное обучение представляет собой метод обучения, при котором учащиеся работают над реальными проектами, имеющими конкретные цели и результаты. Этот метод позволяет студентам